

JONLI KOMPYUTERLAR

*Andijon davlat chet tillari instituti roman-german
va slavyan tillari fakulteti, filologiya va tillarni
o'qitish nemis tili yo'nalishi 101-guruh 2-kurs
talabasi*

Abdurahmonova Ozoda

Jahon bilan bo'ylashib, qadamba-qadam tenglashib borayotgan yurtimiz mustaqilligiga ham 32 yil bo'ldi. Shu vaqt ichida O'zbekiston o'z so'ziga, o'z o'rniga ega bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tilida nutq so'zlagani buning yorqin dalilidir. Shuni ishonch bilan ayta olamanki, O'zbekiston bugun dunyoning manaman degan rivojlangan davlatlari bilan har sohada bellasha oladi.

Ish bor joyda kamchilik bo'ladi, deyishadi. Hech kim va hech narsa mukam-mal emas. Men o'zim talaba bo'lganligim uchun ta'lim sohasidagi yutuq va kamchiliklarning ba'zilarini eshitgan bo'lsam, ba'zilariga o'zim ham guvoh bo'lganman. Qanday kamchiliklar, deysizmi? Buni sizga misollar bilan kelti-raman. Bugun biz jonli kompyuterlar bo'lib tarbiyalanmoqdamiz. Balki gapim kulgili tuyulgandir. Jonli kompyuterlar? Ayrimlaringiz jinnimi bu, deyishga ham ulgurgandirsiz. Ha, to'g'ri eshitdingiz. Albatta, so'z isboti bilan. Hozir siz-lar bilan takrorlanmas xotiralarga boy maktab davriga qaytamiz. Har birimiz o'quvchi bo'lganmiz va maktab fanlari qatorida tarixni ham xohlaymizmi, yo'q-mi, o'qiganmiz. Hali so'zim tugamasdan, qattiqqo'l o'qituvchini-yu, zerikarli tarix darsi, soat millariga termulgan ko'zlaringizni yodga olgandirsiz. Fikringiz-ga biroz qo'shilaman. Aslini olganda esa, tarix – bugunimiz, ertamiz, kelajagi-miz. Biz esa uning yaratuvchilarimiz. Bugunki kun, undagi islohotlar, yaratila-yotgan ixtirolar, innovatsiyalar vaqtlar o'tgach tarixga aylanadi. Nima deb o'ylaysiz, ana shu biz uchun qadrlil bo'lgan tarix qadrsizlanmasmikan? Agar ta-rix o'qitish metodlariga biroz o'zgartirish kiritmasak, biz kabi kelajak avlod ham ushbu fanni majburiyat uchun o'qiydi. Tarix ilmiga qiziqishimga qaramas-dan, darslardan anchagina bezganman. O'qituvchining keraksiz „kim, nima, qachon, qayerda“ degan savollari barchamizni birdek toliqtirardi. Biz yoshlar tarixni faktlar uchun emas, xulosalar uchun o'qishimiz kerak. Chunki zamon-ning o'zi shuni talab qilmoqda; muammolar ko'p. Ularni birma-bir sanashimiz emas, tarixiy xatolardan kelib chiqqan holda yechim topishimiz lozim. Mana endi nimaga jonli kompyuterlar deganimni tushungandirsiz. Biz ma'lumotlarni olyapmiz va ularni kompyuter xotirasiga joylagandek o'quvchilar miyasiga joy-layapmiz. Aslida biz bir-biridan farq qiluvchi qarashlarni, shu bilan birga inno-vatsion g'oyalarni kashf etuvchi va tanqidiy yondasha oluvchi kadrlar bo'lishi-miz zarur. Rivojlangan Yaponiya misolida buni ko'rishimiz mumkin. Yaponiya hukumati 2021-yil universitet imtihonlarini oldingidek variantli test emas, balki kutilmagan vaziyatlardan

chiqib ketish uchun beriladigan savollar va yozma es-selar tizimiga o'tkazdi. Asrimiz tobora mukammallashib borgani sari teran fikr-lovchi insonlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shunday ekan biz jahon bozorida son emas, sifat bilan bellasha olishimiz, nemischa aytganda, „WunderKind“larni tarbiyalashimiz kerak.

Butun jahon sening noming ulug'lar,
Bugun mustaqilsan, bugun ozodsan.
Bugun yoshlaringda sharaf, iftixor,
Boshingdan o'tgani, bari – imtihon.
Shoirilar sen uchun qasida yozdi,
Ba'zan vatanfurush vatani sotdi,
Fashistlar xalqimni ayamay otdi,
Bugun O'zbekiston o'z o'rnin topdi.

O'zbekim, o'zingdan o'zim aylanay,
Xushbo'y islaringga o'zim boylanay,
O'zingsan biz uchun aziz va suyuk
Bizlar uchun doim o'zingsan buyuk.

Bildirgan fikrlarim tirnoq ostidan kir qidirish emas, aksincha, bir talaba qiz-ning o'z qarashlari, o'z xulosalari va tengqurlariga qarata aytgan bir chaqirig'i xolos aslida. Zero, Yangi O'zbekistonga yangicha fikrlovchi yoshlar yarashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tarix darsligi
2. Alisher Umirdinovning „Talaba do'stinga 78+ tavsiya“ kitobi